

TERMINLARNING METAFORIK QO'LLANISHI

Raximova Maloxatxon Odiljon qizi

Qarshi xalqaro universiteti assistent o'qituvchisi.

malohatrahimova996@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15081683>

Annotatsiya. Metafora, metaforizasiya jarayoni, inson tafakkurining metaforologik qobiliyati haqida bugungacha ko'p va xo'p aytiladi. Antik davrlardan nutqning ta'sirli-tasviriy vositasi va jozibasi deb qaralib kelingan mazkur hodisa haqida bildirilgan jami fikrlarning orasida esa yaqin yillardan buyon metaforaga bilish jarayonining o'ziga xos aspekti, usuli, fikrlash mexanizmi, inson ongining tuyulganidan-da zalvorliroq, ahamiyatliroq fenomeni ekani to'g'risidagi xulosalar o'zining tasdig'ini topgan ilmiy haqiqatlardir. ¹[1:13]

Kalit so'zlar: Metafora, o'xshatish, termin, nominasiya, lisoniy, nutqiy, emotsional-ekspressiv, poeziya.

METAPHORICAL USE OF TERMS

Abstract. Metaphor, the process of metaphorization, and the metaphorical ability of human thinking have been said a lot to date. Among the many opinions expressed about this phenomenon, which has been considered an effective and illustrative means and charm of speech since ancient times, in recent years, the conclusions that metaphor is a specific aspect of the cognitive process, a method, a mechanism of thinking, a phenomenon of the human mind that is more subtle and significant than it seems, are scientific truths that have been confirmed. [1:13]

Keywords. Metaphor, simile, term, nomination, linguistic, speech, emotional-expressive, poetry.

МЕТАФОРИЧЕСКОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕРМИНОВ

Аннотация. Много сказано о метафоре, процессе метафоризации, метафорической способности человеческого мышления. Среди совокупности мнений, высказанных по поводу этого явления, которое с древнейших времен считалось действенным и описательным средством и прелестью речи, есть научные факты, получившие подтверждение с последних лет, о том, что метафора представляет собой уникальный аспект познавательного процесса, метод, механизм мышления, явление человеческого разума, более сложное и важное, чем кажется. [1:13]

Ключевые слова. Метафора, сравнение, термин, номинация, языковая, речевая, эмоционально-выразительная, поэзия.

O'zbek tilshunosligida metafora tadqiqiga doir keng qamrovli izlanishlar olib borilgan.

M.M.Mirtojiev metaforalarni nutq hodisasiga va til hodisasiga oid turlarga ajratadi. Til hodisasi bo'lgan metaforalar oddiy metafora, personifikasiya va sinesteziya kabi ko'rinishlarga ega²[2:97], deb hisoblaydi.

Professor N.M.Mahmudov "Sinestetik metaforalar tarkibidagi so'zlar o'zaro zid, bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi bo'lishi ham mumkin. Bunday g'ayriodatiy birikmalar "oksiumaron birikmalar" ham deb yuritilishini aytib o'tadi.³[3:80]

D.S.Xudayberganova metaforalarni matnda muhim kognitiv-semantik ahamiyat kasb etish bilan birga, til egalarining milliy-madaniy tafakkuriga xos jihatlarni namoyon etuvchi hodisa sifatida baholaydi va o'xshatish hamda metaforalar asosiga qurilgan matnlarning muayyan tilda qoliplashgan matn shakllarini aniqlash imkoniyatini berishini aytadi. Olima ularni matnning presedent shakllari sifatida baholaydi⁴[4:18] hamda kognitiv metaforalarning so'z, so'z birikmasi, gap va mikromatn shaklidagi metaforalarga[5:36] ajratilishini qayd etadi.

O'zbek tilida poetik nutq leksikasini tadqiq etgan B.Umurqulov metaforalar borasida alohida to'xtaladi hamda tilshunoslar: M.Mirzaev, S.Usmonov, I.Rasulov, R.Qo'ng'urov, A.N.Kojin, K.A.Dolininning izohlariga⁵ [5:59-66] qo'shimcha tarzda, hozirgi o'zbek poeziyasida uchraydigan poetik metaforalarni ikkiga bo'lib ko'rsatadi va ushbu guruhlarini 1)umumpoetik metaforalar; 2)individual metaforalar deb nomlaydi. O'zbek tilida metaforik ko'chimlarni komponent tahlil usulida tekshirgan G.K.Qobuljonova metaforani o'rganishning falsafiy asoslarini quyidagicha belgilaydi:

1.Ob'ektivlik (har bir narsa uni o'rgana boshlagunimizga qadar ham, keyin ham o'z holicha mavjud).

2.Substansiallik (har qanday o'rganish ob'ekti, jumladan til birligi o'z sifatlarining jam-ul jami bo'lmish borliq - materiya).

3.Ziddiyatli hodisalar orasida oraliq holatlarning mavjud bo'la olish imkonini hisobga olish⁶ [6] deya baholaydi. N.Mahmudov metafora termin yasallishining eng qadimiy turlaridan biri ekanligini e'tirof etgani holda, "metafora tufayli so'zda yuzaga keladigan ikkilamchi nominasiya imkoniyati, ya'ni so'z shaklan o'zgarmasdan qolgan holda unga boshqa tushunchani ifodalash vazifasini yuklash imkoniyati tilda son-sanoqsiz yangi so'zlar paydo bo'lishining oldini olishini va inson xotirasini mazkur og'ir yukdan qutqarishini alohida ta'kidlaydi.

U terminlarning kommunikasiya jarayonlarini yanada qulaylashtirishdagi benihoya muhim ahamiyati haqida to'xtalib, ilmiy nutqda maxsus birliklarning terminologik ma'nosi

“ishlasa-da”, uning dastlabki, asl ma'nosi termin ostidagi tushunchaga u yoki bu darajada ishora qilib turishini aytib o'tadi.”⁷ [7:6-7]

Umuman olganda, “lisoniy va nutqiy ko'rinishda bo'lishidan qat'iy nazar metaforaning asosini, mohiyatini nomlash tashkil qiladi.”⁸ [8:178-179] Metafora asosida nom ko'chishi predmet, belgi, harakat, holatlarning keng ma'nodagi o'xshashligiga asoslanadi. Asos konkret, abstrakt bo'lishi mumkin. Metafora tuzilishiga ko'ra sodda va kengaygan, badiiy hamda lingvistik metaforalarga ajratiladi.⁹ [9:236-237]

Metaforik ma'no tilning ifoda imkoniyatini kengaytiradigan muhim vosita sanaladi. Bu holat terminlarning ifoda imkoniyatlarida ham namoyon bo'ladi. Ya'ni terminlar ham o'z navbatida ko'chma ma'no kasb etib, emosional-ekspressiv uslubiy ma'no ifodalash xususiyatiga ega bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda terminlarning qo'llanilish doirasi chegaralangan maxsus leksikaga mansubligi ta'kidlanadi.¹⁰ [10:17] Tilshunoslikda terminning o'ziga xos muhim jihatlari sifatida ma'lum uslubga xos ekanligi (ilmiy), maxsus sohaga oidligi, ilmiy atama bo'lib, odatda, bir tushuncha (monosemantik)ni ifodalashi aytib o'tiladi. Qo'llanish doirasiga ko'ra terminlarni ikkiga ajratish mumkin:

1. Umumxalq tilida qo'llanilib barcha til egalariga birdek tushiniladigan terminlar;
2. Muayyan sohadagina qo'llanadigan va tushiniladigan terminlar.

Masalan, qo'rg'oshin, temir, mis, astma, diagnoz kabi atamalar umumxalq tilida keng qo'llanadi va hamma tushinadi. Aksincha, limfoblastoma, ektomiya, tetaniya kabi terminlar tor doirada qo'llanadi.

Badiiy matnda terminlar ham boshqa lug'aviy birliklar kabi tilda kishilarning ehtiyoji uchun xizmat qiladi va o'zaro aloqa almashuvida narsa va hodisalarni ifodalashda keng qo'llanadi. Umumxalq tilida qo'llangan terminlar ko'p qo'llanilishi natijasida o'z ma'no doirasini kengaytirib, boshqa ma'nolarni ham ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Terminlar, odatda, o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra boshqa lug'aviy birliklardan farqlanadi. Ya'ni terminlar oddiy so'zlardan farqli o'laroq birma'noliligi, ilm-fan, kasb-hunarga oidligi, emosional-ekspressiv bo'yoq va stilistik belgi ifodalamasligi kabi bir qancha jihatlari bilan ajralib turadi. Lekin terminlar badiiy matnda qo'llanganda boshqa lug'aviy birliklar singari ekspressivlik kasb etib turli uslubiy ma'nolarni ifodalashi mumkin. Bunda terminlar o'z qobig'idan chiqib umumxalq tushinadigan oddiy so'zga aylanadi.

Natijada, barcha nutq uslublarida qo'llanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Badiiy matnda terminlarni metaforik vosita sifatida qo'llanilishi ham o'ziga xos muhim jihatlardan biri

sanaladi. Bu esa terminlarning mohiyat-mazmunini, funksional uslubiy xususiyatlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, quyidagi matn parchasida ko'chma ma'noda qo'llangan terminlarga e'tibor qaratsak:

Jahon gulshani vafo guli ziynatidan bo'shab qolgan, bashariyat guli vafoning muattar hidlaridan ayrilgan. Dunyoning qorong'i tuproqxonasini vafo sham'i yoritmayapti va zamon bevaforlar ko'ngli bilan ulfatlashmayapti. Vafoning nargis guli davr chamaniga ko'z solmaydi va kishilarning ko'ngil g'unchasida ko'rolmaslik va hasaddan o'zga narsa topilmaydi. (T. Malik, "Husnu xulq")

Keltirilgan misolda jahon gulshani, vafo guli, vafoning muattar hidlari, ko'ngil g'unchasi, vafo sham'i, vafoning nargis guli, davr chamani kabi metaforik birikmalar qo'llangan. Mazkur birikma orqali muallif inson tabiatiga xos fazilatlarni shu qadar latif chizgilarda tasvirlaganki, bunga matnda qo'llangan uyadosh (gulshan, gul, g'uncha, chaman, hid, nargis guli) so'zlarning ipga tizilgandek, bir-birini mazmunan to'ldirib kelishi orqali betakror metaforik mazmun hosil qilingan deyish mumkin. Bunday original badiiy ifoda T.Malikkagina xos.

Matnda qo'llangan sham', gul, g'uncha kabi atamalar allaqachon milliy tafakkurga singib, ramziy ma'no ifodalovchi badiiy tasvir vositasi sifatida qabul qilinadigan bo'lib qolgan.

Qo'rquvning ko'zi katta,

Yuragi kichik bo'lur,

Qo'rquv zo'r kelgan yurtda

Arslonlar kuchuk bo'lur.(E.Voh.)

Keltirilgan misrada anatomiyaga oid ko'z va yurak terminlari metaforik ma'no ifodalagan. Bu ma'no mavhum ob'ektni, ya'ni qo'rquvning ko'zi, yuragini atab kelgan.

Xalqimizda ko'z qo'rqqoq qo'l botir degan bir maqol bor. Shoir balki shu maqolga analogiya qilgani holda ushbu original metaforik ma'noni ifodalashga erishgan. Shuningdek, ikkinchi baytda qo'llangan arslon va kuchuk atamalari ham o'z ma'nosida emas ko'chma ma'noda qo'llangan. Bu obrazli kinoyaviy ko'chim sanaladi. Ekspressivligi kuchli bo'lgan poetik metafora.

Lekin u chalmay turib

Qulog'ini buradi.

Barmog'i ham manov ip

Ustida yugurardi.(E.Voh..)

Ushbu misolda ko'pchilikka tanish bo'lgan quloq(anatom.a.) atamasi an'anaviy barcha birdek tushunadigan noekspressiv metafora sifatida qo'llangan.

Jamiyatda insonlar o'rtasida va oilaviy hayotda bo'ladigan turli munosabatlar ham metaforik holda ifodalanishi mumkin. Masalan, Tashib keltirilgan gap ona va qiz orasida qolsa mayli edi. Bunday gap "homilador" bo'ladi va "bolalab" tarqayveradi.

Ko'p o'tmay qudaning qulog'iga ham etib boradi. Qarabsizki, "uyiga gap tashib borga kelin" boshi uzra qora blutlar to'planadi." Yo'l quvlagan – xazinaga yo'liqur, gap quvlagan – baloga yo'liqur", deb bejiz aytilmagan.(T.Malik)

Yuqorida keltirilgan misolda gap, homilador, bulut atamaları ko'chma ma'noda qo'llangan.

Yuqorida keltirilgan misralarda ham qonun, tuzuk, dastur atamaları olam, hayot so'zlariga nisbatan qo'llanilib go'zal tasvir vositasi vazifasini o'tagan.

Hayot ummoni aro yurtim ulkan kemadir,

Bir ul kema ahlining joni ham, imoni ham.

Unga ayon dolg'a ne, ofat, to'fon nimadir

Olam eli biladi – yurtim tinchlik qo'rg'oni.(E.Voh.)

Keltirilgan misolda ham bir ma'noviy uyani hosil qiluvchi ummon, kema, dolg'a(to'lqin), ofat, to'fon kabi geografik atamalar(terminlar) ko'chma ma'no kasb etgan va badiiylilikni, uslubiy bo'yoqdorlikni yuzaga keltirgan. Shuningdek, qo'rg'on (toponimik atama) termini ham tinchlik so'ziga bog'lanib o'z ma'nosida emas, ko'chma ma'noda qo'llangan.

Xulosa qilib aytganda, atamalar ham badiiy matnlarda qo'llanilib, o'ziga xos obrazli tasvir vositasi sifatida ta'sirchanlik, uslubiy bo'yoq, emosionallikni ifodalashga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013. – B.21, 35, 41, 73, 75.
2. Maxmaraimova Sh. Olam lisoniy tasvirida teometaforaning kognitiv aspekti. Filol.fan.noiz.diss. (PhD) T., 2018. B.-13
3. Mirtojiev. M.M. O'zbek tili semasiologiyasi. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2010 –B. 97.-B.13
4. Mahmudov N. O'qituvchi nutq madaniyati. - Toshkent, 2009. 2-nashr, -B. 80.
5. Xudayberganova D.S. O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2015. –B.18.
6. Xudoyberganova D. Matnning mazmuniy tarkibida metaforalar // O'zbek tili va adabiyoti. 2012, 1-son. 36-b.
7. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. - Toshkent: Fan, 1990. – B. 59-66.
8. Qobuljonova G. Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy dar. olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. - Toshkent, 2000.

9. Mahmudov N. O'sha maqola. – B. 6- 7.
10. Xo'jamqulov A. O'zbek tilida o'xshatish va metafora // Ayub G'ulomov va o'zbek tilshunosligi masalalari. Ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent, 2012. – B.178-179.